



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC  
SOLUTIONS

**“RKB MUHOFAZA QO‘SHINLARINING MAXSUS-TAKTIK  
TAYYORGARLIGI”**

**FANINING “HARBIY TOKSIKOLOGIYA” BO‘LIMIDAN MA’RUZA  
MASHG‘ULOTLARINI O‘TKAZISH USLUBIYATI**

**Ziyadullaev Abdukaxxar Shamsiyevich**

*O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa  
universiteti QK BShF Jangovar ta’minot kafedrasi professori, k.f.n., professor.*

**Po‘latov Ilxomjon Mamadaminovich**

*O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti QK BShF  
Jangovar ta’minot kafedrasi katta o‘qituvchisi – RKBMX boshlig‘i, podpolkovnik*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “RKB muhofaza qo‘shinlari maxsus-taktik tayyorgarligi” fanining “Harbiy toksikologiya” bo‘limidan ma’ruza mashg‘ulotlarini o‘tkazish uslubiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** “RKB muhofaza qo‘shinlari maxsus-taktik tayyorgarligi”, harbiy toksikologiya, ma’ruza, aqliy hujum, Venn diagramma, klaster, muammoli ma’ruza, axborot, og‘zaki, savol, javob, teskari effekt.

O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalarida kursantlar va tinglovchilarni tayyorlash O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining rivojlantirish istiqbollari, harbiy san’atning rivojlanish tendensiyalarini, qo‘shinlarni tayyorlash usullarini hisobga olgan holda belgilanishi, fan va texnikaning so‘nggi yutuqlari, harbiy nazariya, pedagogika, harbiy maxsus operatsiyalar, qurolli to‘qnashuvlar va harbiy o‘quvlar tajribasidan foydalangan holda qat’iy ilmiy asosga asoslangan bo‘lishi kerak.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, harbiy maxsus operatsiyalar va qurolli to‘qnashuvlar tajribasini o‘rganish kelajakda kursantlarning komandir sifatida o‘z vazifalarini bajarishga tayyorgarlik ko‘rishning ajralmas qismidir, shu jumladan jangovar operatsiyalar paytida, chunki urush tajribasini yaxshiroq va tezroq o‘rgangan kishi jang maydonida g‘alaba qozonadi. Shuning uchun ham hozirgi bosqichda harbiy maxsus operatsiyalar va qurolli to‘qnashuvlar (Россия ва Украина, Исроил ва Фаластин) tajribasini o‘rganish ishlarini aniq rejalashtirish va eng muhimi - ular tajribasi yutuqlarini tezda o‘rganib uni mashg‘ulotlarga kiritish kerak. Harbiy maxsus operatsiyalar va qurolli to‘qnashuvlar tajribasidan foydalanishni kam baholash har doim jangni tashkil etish va o‘tkazishda, jangovar tayyorgarlik amaliyotida ilgari sodir bo‘lgan xatolarni takrorlashga olib keladi, shuningdek, jangovar kurashning yangi usullarini o‘rganish va tarqatishga va ularni amalda qo‘llashga to‘sqinlik qiladi.

Turli uslubiy metodlar yordamida harbiy maxsus operatsiyalar va qurolli to‘qnashuvlar tajribasi materiallari taktik va maxsus-taktik fanlarni o‘qitishning barcha shakllarida





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qo'llanilishi kerak. O'qitish shakllari orasida nazariy mashg'ulotlar muhim rol o'ynaydi (ma'ruzalar va seminarlar).

Ma'ruza batafsil nazariy xabar bo'lib, unga ishonch va dalillarni keltiradigan ma'lum aniq materiallarni o'z ichiga oladi. Ma'ruza davomida nazariy fikrning amaliy faoliyat, bo'lib o'tgan harbiy maxsus operatsiyalar va qurolli to'qnashuvlar jangovar tajribasi bilan o'zaro bog'liqligi bayon etiladi. Ma'ruzaga amaliy yo'nalish beruvchi harbiy maxsus operatsiyalar va qurolli to'qnashuvlar tajribasidan haqiqiy materialni taqdim etish usuli katta ahamiyatga ega.

Amaliyotdan olingan misollar ma'ruzalar paytida тингловчининг doimiy e'tiborini ta'minlaydi, harbiy maxsus operatsiyalar va qurolli to'qnashuvlar tajribasini o'rganish uchun ijobiy turtki beradi. Bundan tashqari, amaliyotdan faktlarni ko'rib chiqish, aniq jangovar vaziyatlarni tahlil qilish tinglovchilarni berilgan misollarni tushunishga, ularda xuddi shunday vaziyatda o'z faoliyati uchun yo'nalishlarni ko'rishga undaydi.

Shuning uchun o'quv materialini taqdim etishni harbiy maxsus operatsiyalar va qurolli to'qnashuvlar tajribasidan qisqacha misol bilan boshlash, o'rganilayotgan materialning тингловчининг kelajakdagi amaliy faoliyati uchun dolzarbligini tasdiqlash, olingan ma'lumotlarning ahamiyatini namoyish etish maqsadga muvofiqdir. Ma'ruzada nazariy umumlashmalarning ahamiyati misollar yoki har qanday muayyan jangovar vaziyatni tahlil qilish bilan tasdiqlanishi kerak.

Shunday qilib, nazariy mashg'ulotlar davomida tinglovchilar harbiy maxsus operatsiyalar va qurolli to'qnashuvlar tajribasi to'g'risida ma'lumot olishadi, keyinchalik ular taktik va taktik-maxsus fanlarning amaliy mashg'ulotlarida va o'z amaliy faoliyatida foydalanadilar.

RKB muhofaza qo'shinlari ofitserlarining kasbiy tayyorgarlik darajasi ko'pincha shaxsiy tarkibning bilim darajasi va jangovar shayligiga bog'liq bo'ladi.

Maxsus-taktik tayyorgarlik va dastlabki ma'lumotlar bo'yicha boshqaruv hujjatlar talablarini bilish, maxsus-taktik tayyorgarlikni tashkillashtirish va o'tish davomida ular ta'sirini to'liq va to'g'ri hisobga olish, ofitserlarga jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlikni o'z vaqtida va samarali rejalashtirish va tashkillashtirishga imkon yaratadi.

Ma'ruza mashg'ulotlari, odatda, bir necha o'quv guruhini o'z ichiga olgan, 100 nafardan ortiq bo'lmagan kursant va tinglovchilarning oqimi (potok) bilan o'tkaziladi.

Ma'ruzalar o'quv mashg'ulotlarining eng muhim turlaridan biri sanalib, kursant va tinglovchilarning nazariy tayyorgarligini tashkil etadi.

Ma'ruza - bu mavzuning ko'rib chiqilayotgan savollari bo'yicha kengaytirilgan nazariy axborot berish, ilmiy tahlil qilishdir. O'qiladigan маърузалар maqsadi fanga oid ilmiy bilimlarning muayyan tizimga solingan asoslarini havola etish, fan va texnikaning muayyan sohadagi holati va taraqqiyotining istiqbollari yoritish, eng murakkab va asosiy masalalarga e'tiborni qaratishdan iboratdir.

Ma'ruza - bu belgilangan dastur mavzusiga asosan bir-biri bilan bog'liq bir necha o'quv savollarini batafsil og'zaki ifoda etishdir.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ma'ruza – bu mavzuning ko'rib chiqilayotgan savollari bo'yicha kengaytirilgan nazariy axborot berish, ilmiy tahlil qilishdir. O'qiladigan ma'ruzalar maqsadi “Jang va operatsiyalarda texnik ta'minoti” faniga oid ilmiy bilimlarning muayyan tizimga solingan asoslarini havola etish, fan va texnikaning ushbu sohadagi holati va taraqqiyotining istiqbollari yoritish, eng murakkab va asosiy masalalarga e'tiborni qaratishdan iboratdir.

Ma'ruzada dalillar tahlili, ularni bir-biri bilan qiyoslash, ular o'rtasidagi aloqadorlikni o'rnatish, ilgari surilayotgan fikr va xulosalarni asoslash muhim o'rin egallaydi. Ma'ruzalar, odatda, biror-bir muammoni ko'tarib chiqishi, ta'lim oluvchilarning faol bilim oltirish faoliyatiga turtki berishi, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllanishiga omil bo'lishi lozim.

Ma'ruza davomida yangi erishilgan va zamonaviy rivojlangan harbiy san'at va RKB muhofaza qo'shinlari taktikasi negizida nizom va qo'llanmalar qoidalarini hartomonlama ochish va asoslab berish kerak.

Ma'ruza ofitserlarning nazariy tayyorgarligini asosini tashkil etadi. Ular o'rganiladigan fanning asosiy ilmiy bilimni berishi va ayniqsa, qiyin savollarni dialektik bog'lagan holda ochishi zarur.

Ma'ruza qoidaga ko'ra, o'zida muammoli vaziyatni, RKB himoya qo'shinlari nazariyasi va amaliyotini asosiy savollarini mujassam etishi lozim.

Ma'ruzachi muammoli vaziyatlar tizimini qaror toptiradi, o'quv materialini bayon etadi, ulami tushuntirib boradi, chiqarilgan tayyor xulosalar ko'rinishida yoki o'quv muammolami o'rta qo'yish shaklida o'quv materiallarning o'zlashtirish jarayonini boshqarib boradi. Ta'lim olayotganlar esa ma'ruzachining tushuntirishlarini idrok etish, tahlil qilish, muayyan muammolarni va ulami hal etish usullarini shakllantirish va bu borada qabul qilgan qarorlari to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tekshirish yo'li bilan bilimlarni va muammoli vaziyatlarda ish tutish usullarini o'zlashtirib boradi. Ma'ruzalarning muammoni ko'tarib chiqish darajasi bosqichdan-bosqichga ortib borishi lozim.

Ma'ruza o'qilayotganida ma'ruzachining ta'lim oluvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri oqilona ochiq muzokarani qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ma'ruzachining vaqti-vaqti bilan o'rta tashlagan savollari va ta'lim oluvchilarning ushbu savollarga bergan javoblari auditoriyaning faolligini oshirish, e'tiborini ko'rilyotgan savolga jalb etish, shuningdek, auditoriyaning bayon etilyotgan o'quv materialini qay darajada idrok etayotganini aniqlash imkonini beradi.

Ma'ruza vaqtida ko'rgazmali qurollardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish nazariy materialni ta'lim oluvchilar tomonidan anglab yetilishini yengillashtiradi. Ma'ruza materiallari harbiy xizmatchilarning shu mavzu yuzasidan mustaqil tayyorgarligi uchun asos yaratishi lozim. Shuning uchun ham ma'ruza matni, nizomlar va ko'rsatmalarning qisqartirilgan bayoni bo'lib qolmasdan, balki unda mavzuning asosiy, murakkab qismi tushuntirilishi, mavjud adabiyotlar tahlil qilinishi,





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC  
SOLUTIONS

ma'ruzada ko'tarilgan muammolar ustida keyinchalik qay yo'sinda mustaqil ishlash ma'qulligi to'g'risida maslahatlar berilishi lozim.

Ma'ruza mashg'ulotlarining faol shakllari:

tasviriy (vizual) ma'ruza; muammoli ma'ruza; ma'ruza - matbuot konferensiyasi;

ikki nafar kishilik ma'ruza; ma'ruza - provokatsiya (chalg'ituvchi ma'ruza); ma'ruza - konsultatsiya; ma'ruza - suhbat; qarshi aloqa texnikasidan foydalanuvchi ma'ruza.

Har bir ma'ruza o'z ichiga kirish, asosiy va yakuniy qismni oladi. Kirish qismida: mavzuning nomi, ma'ruza mavzusining asosiy g'oyasi va muhimligi; o'quv maqsadlar; ma'ruzaning o'quv savollari; oldingi va keyingi mashg'ulotlar bilan bog'liqligi; OHTMda ofltserlarni tayyorlash jarayonidagi ma'ruzaning tutgan o'mi bay on qilinadi.

Ma'ruzaning asosiy qismida o'quv savollarining mazmuni yetkaziladi. Ma'ruzaning har bir nazariy jihati eng maqsadga muvofiq usullarni qo'llagan holda asoslangan va isbotlangan bo'lishi kerak. Ma'ruzaning asosiy qismini bayon qilishda ta'lim oluvchilarga ilmiy g'oyalarni rivojlanishi, jamlanishi, mavhumlikdan aniqlikka o'tishining mantiqini yoritib berishga imkon bermaydigan dalillarga tayanish ma'ruzaga bo'lgan majburiy talab hisoblanadi. Har bir ma'ruzaning asosiy qismini mazmuni fundamental bo'lishi kerak.

Amaliy maqsadlarga yo'naltirilgan ma'ruzalarda kasbga oid va o'quv vazifalarni hal etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ko'zda tutish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Har bir o'quv savol uni keyingi o'quv savoliga mantiqiy olib keluvchi, rivojlanish istiqbollarning nazariyasi va amaliyoti hamda qisqacha xulosasini yoritish bilan tugatilishi kerak.

Ma'ruzaning yakuniy qismida nazariya va amaliyotni qo'llash soha va chegaralarini ko'rsatgan holda asosiy qism mazmuni umumlashtiriladi va qisqacha xulosa qilinadi, mustaqil o'rganish hamda kelgusi seminar va boshqa turdagi mashg'ulotlarda muhokama qilish uchun savollar va vazifalar belgilanadi.

"RKB muhofaza qo'shinlarining maxsus-taktik tayyorgarligi" fanining "Harbiy toksikologiya" bo'limidan ma'ruza mashg'ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalar qo'llanilmoqda. Jumladan, aqliy hujum, VENN diagrammasi, klaster va b. – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g'oyasini jamoaviy yuzaga keltirishda qo'llaniladigan metod. Mazkur usullar chegaralangan vaqt oralig'i ichida aniq muammo (savol, masala)ni yechishning noan'anaviy yo'llarini izlash bo'yicha kursantlarni aqliy faoliyatini yo'naltirishga asoslangan.

Agar OHTMda kursant va tinglovchilarning ma'ruza mavzusi bo'yicha mustaqil tayyorlanishini ta'minlash uchun zarur adabiyotlar mavjud bo'lmasa, ushbu ma'ruza mavzusi bo'yicha kerakli nusxada chop etilgan ma'ruza matnlari bo'lishi lozim. Ma'ruzani o'qishda kino va videofilmlar, chizmalar, plakatlar, modellar, asboblarni va maketlarni namoyish qilgan holda o'quv materiallarining og'zaki yetkazilishi o'qitishning yetakchi uslubi hisoblanadi.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

O'qituvchi ma'ruza mazmuni, o'qish uslubi va rejasini, auditoriya bilan doimiy pedagogik aloqani ushlab turish va ta'lim oluvchilarning anglash faoliyatini rivojlantirish usullarini batafsil o'ylab olishga, yetkaziladigan materialning ilmiy va mazmunijihatdan talab darajasida bo'lishini ta'minlashga majbur.

Materialni yetkazish tempini tanlashda o'qituvchi, ta'lim oluvchilar (tinglovchilar, kursantlar) toifasini, ushbu mavzu (yo'nalish) bo'yicha o'quv, ilmiy, uslubiy adabiyotlar mavjudligi va boshqa omillarni albatta hisobga olishi kerak.

Ma'ruzachiga, ma'ruza boshlanishidan oldin ta'lim oluvchilarning o'tilgan nazariy kurs bo'yicha bilimlarini tekshirish va baholash uchun 15 daqiqagacha vaqt ajratishga ruxsat beriladi. O'quv fani yoki uning mustaqil bo'limi bo'yicha ma'ruzani o'qish bitta o'qituvchi tomonidan olib borilishi lozim.

Ma'ruzachini almashtirish alohida holatlarda faqat OHTM boshlig'i yoki uning o'quv ishlari (o'quv va ilmiy ishlar) bo'yicha o'rinbosari ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Asosan ma'ruza ikki-uch murakkab savollarga bo'linadi. Ma'ruzaning qolgan savollarini o'rganuvchilar mustaqil tarzda yoki mashg'ulotning boshqa turlarida o'rganadi.

Ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish quyidagilarni o'z ichiga oladi: ma'ruza materiallarini tayyorlash, materialni rasmlar bilan boyitish va aniq misollar keltirish, ma'ruzani o'qish rejasini va mashg'ulot rahbarining ma'ruza o'qishga tayyorgarlik ko'rishini. Ma'ruza materiallarini tayyorlashga kirishishdan oldin mavzuga oid boshqaruv hujjatlar va qo'llanmalar talablarini o'rganib chiqish lozim. Qo'llanmalarni o'qish davomida kerakli joylariga belgilar qo'yish va bo'lg'usi ma'ruzani tashkiliy rejasini tuziladi.

Ikki soat ma'ruza mashg'uloti materialni 22-26 varoqni tashkil qilishi kerak. Ma'ruzani matn qismini tuzish, mavzuni anglash, uning mo'ljallanishi va tuzilishini aniq belgilashdan boshlanadi. Shu bilan birga har bir savol har xil darajada batafsil va chuqurroq tushuntirilishi lozim. Ma'ruza materiallarini tayyorlash bilan birgalikda ma'ruzani o'quv savollarini to'liq va samarali ochish maqsadida chizma, jadval, tasvirlar sifatida ko'rgazmali qo'llanma ishlab chiqiladi. Ikki soatlik ma'ruza uchun 30 sahifadan iborat ko'rgazmali material yetarli bo'ladi.

Ma'ruza vaqtida ko'rgazmali qurollardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish nazariy materiallarni ta'lim oluvchilar tomonidan anglab yetilishini yengillashtiradi. Ma'ruza materiallari tinglovchilarda shu mavzu yuzasidan mustaqil tayyorgarligi uchun asos yaratishi lozim. Shuning uchun ham ma'ruza matni, nizomlar va ko'rsatmalarning qisqartirilgan bayoni bo'lib qolmasdan, balki unda mavzuning asosiy, murakkab qismi tushuntirilishi, mavjud adabiyotlar tahlil qilinishi, ma'ruzada ko'tarilgan muammolar ustida keyinchalik qay yo'sinda mustaqil ishlash ma'qulligi to'g'risida maslahatlar berilishi lozim.

Ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazishda RKB muhofaza vazifalarini bajarish tartibi va ushbu vazifalarini bajaradigan zamonaviy SMART (aqlli) texnik vositalari qo'llash tajribalari, RKB muhofaza xizmati boshlig'ining RKB muhofazani tashkillashtirish





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bo'yicha ish faoliyati, RKB muhofaza qo'shinlari qism va bo'linmalarining zamonaviy jang va operatsiyalarning turli ko'rinishlarida qo'llash asoslarini yetkazishga va bunda zamonaviy harbiy mojarolardagi xorijiy ilg'or tajribalarga e'tibor qaratiladi, ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazishda tasviriy (vizual), muammoli, matbuot konferensiyasi, provokatsiya (chalg'ituvchi), ma'ruza-suhbat va qarshi aloqa texnikasi kabi ma'ruzalarning faol uslublaridan foydalaniladi.

Ma'ruzalar maxsus jihozlangan sinflarda o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'qiladi. Mashg'ulotdan 2-3 kun oldin mashg'ulot rahbari ma'ruzani o'qishga tayyorgarlik ko'radi. Ish ma'ruza o'qish rejasini tayyorlashdan boshlanadi (1, 2, 3-ilova). U o'zida mavzu, maqsad, o'quv savollari va ularning qisqacha mazmuni, har bir o'quv savolini yetkazish uchun ajratilgan vaqt, ko'rgazmali qo'llanma, o'quv texnik vositalar va ularni qo'llash tartibi tashkil etadi.

Ma'ruzani o'qish rejasini mukammal ishlab chiqish mashg'ulot rahbarining tayyorgarlik darajasi va uning uslubiy mahoratiga qarab belgilanadi. Ma'ruza mashg'ulotiga tayyorgarlik yakunlangandan so'ng uni matnini o'qish mashq qilinadi. Imkoni bo'lsa ma'ruzani o'qish jarayonini SD-diskka yozish va keyin uni tinglab ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ma'ruzani o'qish uning mavzusi va maqsadini yetkazishdan boshlanadi. Auditoriya e'tiborini safarbar etish maqsadida qisqacha kirish so'zi bilan o'rganiladigan mavzuni dolzarbligi va ahamiyatiga to'xtalib o'tish juda muhim hisoblanadi.



Ma'ruza o'qish davomida matnni asosiy joylarini boshqalaridan ajratib talaffuz qilish, sekinlik bilan yoki takroran o'quv materialini ifoda etish uchun nutqning aniqligi, ifodasi va jonliligi muhim o'rin tutadi. Ma'ruzada o'rtacha sur'atda, bir daqiqada 70 – 80 tagacha so'z o'qish lozim. Ba'zi so'zma-so'z yozilishi kerak bo'lgan ifodalarni takror o'qish lozim.

Ma'ruza o'qishni mavzuni keyinchalik o'rganish tartibini izohlash va mavzuga oid adabiyotlar ro'yxatini yetkazish bilan yakunlash maqsadga muvofiq bo'ladi. O'rganuvchilar tomonidan yuzaga kelgan savollarga javob berish uchun yetarli vaqt qoldirish lozim.

1-ilova

### Ma'ruzaning tuzilish sxemasi

| Mavzu: Chet el armiyalari kimyoviy qurollarining umumiy tavsifi                                                                                                                                                                                                                                 |                                                   |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------|
| <b>Mashg'ulot shakli:</b>                                                                                                                                                                                                                                                                       | nazariy                                           |
| <b>Mashg'ulot vaqti va joyi:</b>                                                                                                                                                                                                                                                                | 2 soat (80-daqiqa), 2-juftlik, 1/124-o'quv xonasi |
| <b>Mashg'ulot maqsadi:</b> Tinglovchilarga chet el armiyalari kimyoviy qurollar va ularni jangovar qo'llash tamoyillari, zaharlovchi moddalarning umumiy tavsifi, ularning fizik, kimyoviy, toksik xossalari, sinflanishi, shifrlanishi va jangovar xossalari bo'yicha nazariy bilimlar berish. |                                                   |






|                                                                                                                                                                              |                                                                                                                                          |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Mashg'ulot davomida ishlatiladigan usullar:</b>                                                                                                                           | Aqliy hujum, VENN diagrammasi, klaster.                                                                                                  |
| <b>Didaktik vositalar:</b>                                                                                                                                                   | Mashg'ulot rejasi, tarqatma materiallar, o'quv adabiyotlari, mavzuga oid ma'lumot (konspekt), taqdimot, "Kimyoviy qurollar" o'quv filmi. |
| <b>Tayanch tushunchalar:</b> chet el armiyalari kimyoviy qurollari, zaharlovchi moddalar, fizik, kimyoviy, toksik xossalari, sinflanishi, shifrlanishi va jangovar xossalari |                                                                                                                                          |

2-ilova

Ma'ruzani o'qitish texnologiyasi

|                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Vaqt: 2 coat (80 daqiqa)</b>                                                                                                                                                                                                                                                     | <b>Tinglovchilar soni:3-10</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
| <b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi:</b>                                                                                                                                                                                                                                        | Muammoli mavzu bo'yicha vizuallashgan ma'ruza.                                                                                                                                                                                                                                                                              |
| <b>Ma'ruzaning rejasi:</b>                                                                                                                                                                                                                                                          | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Chet el armiyalari kimyoviy qurollar va ularni jangovar qo'llash tamoyillari.</li> <li>2. Zaharlovchi moddalarning umumiy tavsifi, ularning sinflanishi, shifrlanishi.</li> <li>3. Zaharlovchi moddalarning fizik, kimyoviy, toksik xossalari va jangovar xossalari.</li> </ol>   |
| <b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b>                                                                                                                                                                                                                                                   | Tinglovchilarga chet el armiyalari kimyoviy qurollar va ularni jangovar qo'llash tamoyillari, zaharlovchi moddalarning umumiy tavsifi, ularning fizik, kimyoviy, toksik xossalari, sinflanishi, shifrlanishi va jangovar xossalari bo'yicha nazariy bilimlar berish.                                                        |
| <b>Pedagogik vazifalar:</b><br>chet el armiyalari kimyoviy qurollar va ularni jangovar qo'llash tamoyillari, zaharlovchi moddalarning umumiy tavsifi, ularning fizik, kimyoviy, toksik xossalari, sinflanishi, shifrlanishi va jangovar xossalari bo'yicha nazariy bilimlar berish. | <b>O'quv faoliyati natijalari:</b><br><b>Kursant bilishi lozim:</b><br>chet el armiyalari kimyoviy qurollar va ularni jangovar qo'llash tamoyillarini;<br>zaharlovchi moddalarning umumiy tavsifi, ularning fizik, kimyoviy, toksik xossalari;<br>zaharlovchi moddalarning sinflanishi, shifrlanishi va jangovar xossalari. |
| <b>Ta'lim usullari:</b>                                                                                                                                                                                                                                                             | Ma'ruza, namoyish                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
| <b>Ta'lim shakli:</b>                                                                                                                                                                                                                                                               | Frontal                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |





|                                |                                                                                             |
|--------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Ta'lim vositalari:</b>      | Ma'ruza matni, kompyuter                                                                    |
| <b>Ta'lim berish sharoiti:</b> | Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan guruhli shaklda ishlashga mo'ljallangan xonalar |
| <b>Monitoring:</b>             | Og'zaki so'rov                                                                              |

3-ilova

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi


| Ish bosqichlari va vaqti                                  | Faoliyat                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |                                                                                                                              |
|-----------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                                           | Ta'lim beruvchi                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | Ta'lim oluvchilar                                                                                                            |
| <b>1-bosqich.</b><br>O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.) | 1.1. Mayzuning nomi, maqsadi va kutilayotgan natijalarni yetkazadi.<br>1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar haqida ma'lumot beradi.<br>1.3. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi.<br>1.4. Adabiyotlar ro'yxatini beradi.                                                                                                | Tinglaydilar va yozib oladilar.<br>Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.                                                    |
| <b>2-bosqich.</b><br>Asosiy qism (65 daqiqa)              | 2.1. Slaydlarni Power point tartibida namoyish qilish va sharhlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy holatlarni bayon qiladi. Jalb qiluvchi savollar beradi.<br>2.2. Mavzuning har bir qismi bo'yicha xulosa qiladi; eng asosiylariga e'tibor qaratadi va berilayotgan ma'lumotlarni daftarga qayd qilishni talab etadi. | Yozadilar, tinglaydilar, Jadvallarni daftarga ko'chirib oladilar. Savollar beradilar, ma'lumotlarni daftarga qayd qiladilar. |
| <b>3-bosqich.</b><br>Yakuniy qism (5 daqiqa)              | 3.1. Xulosa:<br>Mavzu bo'yicha xulosa qiladi.<br>3.2. Mustaqil tayyorgarlik ko'rish uchun savollar va topshiriqlar beriladi                                                                                                                                                                                                | Tinglaydilar, Savollar beradilar<br>Topshiriqni yozadilar                                                                    |

**Xulosalar:** RKB muhofaza qo'shinlari maxsus-taktik tayyorgarligi - bu RKB muhofaza qo'shinlari ofitser (tinglovchi)larining kasbiy mahoratlarini takomillashtirishdagi mustaqil va eng muhim element hisoblanadi. Uning ahamiyati - o'rganuvchi ofitserlar tarkibi yaxshi bilim va ko'nikmaga, yuksak aql-idrok va madaniy saviya, hayotiy va xizmat tajribalariga ega bo'ladilar.





1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2022-yil 15-sentabrdagi "Mudofaa vazirligi harbiy ta'lim muassasalarida harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi 686-sonli buyrug'i.
4. Abduqodirov A.S., Xoliqova D.A. O'quv mashg'ulotlari o'quv-metodik xujjatlarini ishlab chiqish metodikasi. // Metodik qo'llanma. – T.: "O'R MV HTM PK MOM", 2019.
5. Saidahmedov I. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). – T.: "Fan", 2003.
6. R.J.Ishmuhammedov, M.A.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. T.: "Ofset print" 2012-yil.
7. Qodirov A.R. Taktika fanidan mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi va texnikasi. O'quv qo'llanma. – T.: "O'R QKA", 2018. XDF.
8. <https://n.ziyouz.com - tarix/> (Murojaat sanasi 14.09.2025 y).
9. <https://cyberleninka.ru - article/> (Murojaat sanasi 15.09.2025 y).
10. <https://n.ziyouz.com - tarix/> (Murojaat sanasi 18.09.2025 y).
11. Куланов, Б. Я., & Саодуллаев, А. С. (2021). Развитие альтернативных источников энергии Узбекистана. In НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ, ИННОВАЦИИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ (pp. 29-32).
12. Арзикулов, Ф. Ф., & Мустафакулов, А. А. (2020). Возможности использования возобновляемых источников энергии в узбекистане. НИЦ Вестник науки.
13. Мусаев, Ш., Арзикулов, Ф. Ф., Олимов, О. Н., Норматова, Д. А., & Сатторова, М. А. (2021). Свойства кристаллов кварца. Science and Education, 2(10), 201-215.
14. Мустафакулов, А. А., Джуманов, А. Н., & Арзикулов, Ф. (2021). Альтернативные источники энергии. Academic research in educational sciences, 2(5), 1227-1232.
15. Отажонов, И. О. (2021). Сурункали буйрак касаллиги бўлган беморлар ҳаёт сифати кўрсаткичлари.
16. Отажонов, И. О. (2020). Кам оксилли парҳез самарадорлигини баҳолаш.
17. Otajonov, I. O., & Urinov, A. M. (2024). Assessment of Quality of Life Indicators of Patients with Cirrhosis of the Liver.
18. Otajonov, I. O. (2023). ANALYSIS OF MICRONUTRIENTS IN BABY FOOD RATION IN THE PRESENCE OF COMPLICATIONS AFTER RICKETS, Conferencea, 144-146.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC  
SOLUTIONS

19. Базарбаев, М. И., Эрметов, Э. Я., & Сайфуллаева, Д. И. (2018). Таълимда ахборот технологиялари. Дарслик, Тошкент.
20. Базарбаев, М. И., Эрметов, Э. Я., Сайфуллаева, Д. И., & Яхшибоева, Д. Э. (2023). Использование медиатехнологии в образовании. Журнал гуманитарных и естественных наук, (6), 94-99.
21. Базарбаев, М. И., & Сайфуллаева, Д. И. (2022). Рахитов Б. Т., Ж. раева З. Р. Роль информационных технологий в медицине и биомедицинской инженерии в подготовке будущих специалистов в период цифровой трансформации в образовании. ТТА Ахборотномаси, 10(10), 8-13.
22. Марасулов, А. Ф., Базарбаев, М. И., Сайфуллаева, Д. И., & Сафаров, У. К. (2018). Подход к обучению математике, информатике, Информационным технологиям и их интеграции в медицинских вузах. Вестник ташкентской медицинской академии, (2), 42.
23. Базарбаев, М. И., Сайфуллаева, Д. И., & Рахимов, Б. Т. З.Р. Жураева Роль информационных технологий в медицине и биомедицинской инженерии в подготовке будущих специалистов в период цифровой трансформации в образовании. 10.10.2022. ТТА. Ахборотномаси, 8-13.
24. Базарбаев, М. И., Эрметов, Э. Я., & Сайфуллаева, Д. И. Информационно-коммуникационная технология в медицинских вузах. Реформы в медицинском образовании, проблемы и их решения. In Сборник материалов XII научно-методической конференции. Ташкент-2018.
25. Марасулов, А. Ф., Базарбаев, М. И., Сайфуллаева, Д. И., & Сафаров, У. К. (2018). Подход к обучению математике, информатике, информационным технологиям и их интеграции в медицинских вузах.
26. Фазилова, Л., & Абдуганиева, Ш. (2018). Компьютерные технологии в высшем медицинском образовании. Стоматология, 1(4 (73)), 59-61.
27. Abduganieva, S., Fazilova, L., Nurmatova, F., & Khodjaeva, D. (2023). Computer-human interaction: Web technologies in education. PROBLEMS IN THE TEXTILE AND LIGHT INDUSTRY IN THE CONTEXT OF INTEGRATION OF SCIENCE AND INDUSTRY AND WAYS TO SOLVE THEM:(PTLICISIWS-2022), 2789(1), 050005.
28. Nurmatova, F. B., Xuan, R., & Fazilova, L. A. (2024). The advantages of implementing digital technology in education. Innovations in Science and Technologies, 1(3), 192-195.
29. Фазилова, Л. А. Масофавий таълимни ташкил этишда онлайн маърузалардан фойдаланишнинг назарий-методологик аҳдмийати. Замонавий тиббий олий таълим: муаммолар, хорижий тажриба, истикболлар" мавзусидаги VII уқув-услугий анжуман туплами.-УДК, 004-37.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

30. Fazilova, L. A. "Studying Medicine In Online Education With The Mobile Application" A To Z Anatomy". The American journal of Engineering and Technology, 94-99.

31. Каюмова, М. (2025). ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В КЛИНИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ: ПЕРСПЕКТИВЫ И ВЫЗОВЫ. Academic research in educational sciences, (Conference 1), 165-168.

32. Fayziyeva, N. (2021, December). Modeling and Forecasting of Tax Revenue to the Budget for Profit in the Republic of Uzbekistan. In Proceedings of the 5th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 420-424).

33. Baxtiyorovna, E. D., Alisherovna, F. N., & Hozhievich, B. E. (2025). HISTORY OF THE DISCOVERY OF RADIOACTIVITY AND X-RAYS, NUCLEAR EXPLOSIONS EXPLANATION OF THE PHENOMENON RESEARCH USING INTERACTIVE METHODS. Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions, 3(5), 61-65.

34. Fayziyeva, N. (2025). THE EFFECT OF MAGNESIUM ON PREGNANT WOMEN. Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing, 3(5), 60-63.

35. Fayziyeva, N. (2025). THE INTENSITY OF DIABETES CASES AMONG THE POPULATION OF BUKHARA REGION OVER THE PAST 5 YEARS. International journal of medical sciences, 1(1), 158-161.

